

UCHINCHI RENESANS – MILLIY G'OYA KONSEPSIYASINING MADANIY- MA'RIFIY ASOSLARI

Uzbekova Sadoqat Primovna

Toshkent davlat transport universiteti mustaqil tadqiqotchisi. E-mail:
sadoqatprimovna724@gmail.com

Faqat ma'rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi.
Sh. M.Mirziyoyev

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Uchinchi Renessans g'oyasining milliy g'oya konsepsiyasi bilan o'zaro bog'liqligi, uning madaniy-ma'rifiy asoslari hamda Yangi O'zbekiston taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy o'zlikni anglash, ma'naviy merosni asrash, ta'lim tizimini takomillashtirish va yoshlar tarbiyasida Uchinchi Renessans g'oyasining ahamiyati falsafiy va madaniy nuqtai nazardan yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Uchinchi Renessans, milliy g'oya, madaniy taraqqiyot, ma'naviyat, ma'rifat, Yangi O'zbekiston, milliy o'zlik, madaniy meros.*

Аннотация: *В данной статье анализируется взаимосвязь идеи Третьего Возрождения с концепцией национальной идеи, её культурными и образовательными основами, а также её ролью в развитии Нового Узбекистана. Также подчеркивается важность идеи Третьего Возрождения в понимании национальной идентичности, сохранении духовного наследия, совершенствовании системы образования и воспитании молодежи с философской и культурной точки зрения.*

Ключевые слова: *Третье Возрождение, национальная идея, культурное развитие, духовность, Просвещение, Новый Узбекистан, национальная идентичность, культурное наследие.*

Abstract: *This article analyzes the relationship of the Third Renaissance idea with the concept of the national idea, its cultural and educational foundations, and its role in the development of New Uzbekistan. It also highlights the importance of the Third Renaissance idea in the understanding of national identity, preservation of spiritual heritage, improvement of the education system, and education of youth from a philosophical and cultural perspective.*

Keywords: *Third Renaissance, national idea, cultural development, spirituality, enlightenment, New Uzbekistan, national identity, cultural heritage.*



Ayni vaqtda dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, aholi barcha qatlamlarining axloqiy tarbiyasiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizdagi mavjud uzluksiz ta'lim tizimi aholimizning beshdan bir qismini qamrab olgan. Ushbu tizim qamrab olgan o'sib kelayotgan yosh avloddan tashqari, aholinig katta qismi orasida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlarining tizimli yo'lga qo'yilishi va bu borada yuksak samaradorlikka erishish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, aynan ta'lim-tarbiya va ma'rifat davlatimiz, jamiyatimiz, qolaversa yurtdoshlarimiz hayotining barqarorligini asosiy omillaridan hisoblanadi, shuningdek insonlarni ezgulikka da'vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli bo'lishga da'vat etadi.

Jahonda globallashuv jarayonining shiddatli tus olishi va rivojlanishi iqtisodiy va ijtimoiy hayot bilan birga ma'naviyat hamda madaniyat tizimini ham o'zgartirib bormoqda. Global ziddiyatlar – “ommaviy madaniyat” ekspansiyasi, milliy o'zlikka tahdid va madaniy deformatsiyaga sabab bo'lmoqda. Mafkuraviy ta'sir etishga qaratilgan hatti-harakatlar, an'analarga, milliy va ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan nigilistik munosabatni qaror toptirishga qaratilgan tahdidlar yoshlarning marginallashuvga uchrayotganligi jamiyatni madaniy-ma'naviy o'zgarishlardan saqlash borasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishni taqozo etmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev «Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan», — deb ta'kidlaganlar.

Davlat rahbari o'z chiqishlari va ma'ruzalarida bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surayotgani, manfaatlar to'qnashuvi kuchayib borayotgani, globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarayotgani, milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortayotganiga bot-bot to'xtaladilar. Shuningdek, faqat o'zini o'ylash, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste'molchilik kayfiyati turli yo'llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilayotgani, terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiber-jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi tobora oshib borayotgani ham haqiqat. Ba'zi hududlarda atayin beqarorlik yuzaga keltirilib, norozilik kayfiyati avj oldirilayotgani fikrimizning dalilidir. Bunday tahlikali vaziyatda hushyor va ogoh bo'lib, xalqimizning tinchligi, O'zbekiston manfaatlarini o'ylab yashash oily maqsadga aylanishi zaruriyatga aylanmoqda.

Buning uchun esa milliy va madaniy taraqqiyotning barqarorligini ta'minlashda jamiyatning ma'naviy va madaniy salohiyati muhim omil deya qaralmoqda. Shu sababdan



ham O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar negizida inson qadri, ma'naviy yuksalish va ilm-fan taraqqiyotiga asoslangan Uchinchi Renessans g'oyasi ilgari surildi. Mazkur g'oya nafaqat siyosiy va iqtisodiy rivojlanishning, balki milliy g'oyaning yangi bosqichdagi konseptual asosini ham tashkil etmoqda.

Shu o'rinda renessans va Uchinchi renessans tushunchalariga ham qisqacha to'xtalish o'rinli deb hisoblaymiz. "Renessans" fransuzcha so'z bo'lib, so'zma-so'z tarjima qilinganda "uyg'onish", "qayta tug'ilish" degan ma'nolarni anglatadi. Bu tushuncha insoniyat tarixida ilm-fan, san'at, madaniyat va tafakkurning o'ziga xos yuksalishi hamda gullab-yashnash davrini bildiradi. Renessans davri jamiyatda eskirgan qoliplarni sinishi, ilm-fan, me'morchilik va ijodning yangi bosqichga ko'tarilishi bilan xarakterlanadi. Uchinchi Renessans konsepsiyasi esa O'zbekiston hududida yuzaga kelgan Birinchi va Ikkinchi Sharq Uyg'onish davrlari an'alarining mantiqiy davomi sifatida talqin etiladi. Ushbu g'oyaning asosiy maqsadi ilm-fan, ta'lim, madaniyat va innovatsiyalar asosida yangi taraqqiyot bosqichiga erishishdan iborat.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida Uchinchi Renessans poydevorini yaratish eng muhim strategik vazifadir". Ushbu yondashuv milliy g'oyaning mazmunini zamonaviy taraqqiyot talablari bilan uyg'unlashtirishga xizmat qilmoqda. Milliy g'oyamiz jamiyatni birlashtiruvchi, xalqning tarixiy xotirasi, qadriyatlar va kelajakka intilishlarini ifodalovchi g'oyaviy tizimi bo'lsa, Uchinchi Renessans esa ushbu g'oyaning amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Milliy g'oyaning asosiy tamoyillari Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, ma'naviy yuksalish, ilm-fan va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, madaniy merosni asrashdir. Mazkur tamoyillar Uchinchi Renessans konsepsiyasining mazmunida ham o'z aksini topgan. Shu jihatdan Uchinchi Renessans milliy g'oyaning zamonaviy rivojlanish modelidir desak ham mubolag'a bo'lmaydi.

Madaniyat har qanday uyg'onish davrining tayanch omili hisoblanadi. O'zbekiston hududida shakllangan boy madaniy meros Uchinchi Renessansning muhim manbai bo'lib, madaniy asoslar quyidagilar bilan tavsiflanadi:

Birinchi, tarixiy-madaniy merosni asrash va targ'ib etishda imom Buxoriy, Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi allomalarimiz merosining chuqur o'rganilishi yosh avlodda milliy g'urur hissini shakllantirib, tarixiy xotirani yanada mustahkamlaydi.

Ikkinchidan, milliy o'zlikni anglash jarayonining kuchayishi. Milliy identifikatsiya va madaniy xotira jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Uchinchidan, madaniyatlararo muloqotning rivojlanishi. Globallashuv davrida milliy o'zlikni, milliy qadriyatlar va milliy madaniyatimizni saqlagan holda umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish Uchinchi Renessansning muhim jihatlaridan biridir.



Uchinchi Renessansning markazida inson kapitalini rivojlantirish masalasi turganligi ta'lim va ma'rifat tushunchalarini konsepsiyaning asosiy tarkibiy qismiga aylantirgan. Ma'rifiy asoslar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim tizimini modernizatsiya qilish;
- ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish;
- yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish;
- kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish;
- zamonaviy va milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirish.

Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat masalasidir". Davrlar osha o'z ahamiyati va dolzarbligini yo'qotmagan ushbu fikr Uchinchi Renessansning ma'rifiy mohiyatini ochib beradi.


Yurtimiz yoshlari kelajagimiz davomchilari va Uchinchi Renessans bunyodkorlari sifatida qaralmoqda. Chunki mamlakatning kelajakdagi taraqqiyoti ularning bilim va salohiyatiga bog'liq. Shu ma'noda davlat siyosatida sifatli ta'limni kengaytirish, yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash, xorijiy tillarni o'rganishni rag'batlantirish hamda zamonaviy kasb-hunarlarni egallashga ko'maklashish kabi vazifalar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. 2026 yil, 26 mayda e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash va ularni attestatsiya qilish tizimini takomillashtirish to'g'risida" gi farmoni yurtimiz ilm-fani rivojida, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari uchun ilg'or yechimlarni yarata oladigan yangi avlod ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yishda, Uchinchi Renessans uchun muhim qadamlardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, Uchinchi Renessans g'oyasi Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining g'oyaviy negizi deya qaralmoqda. Mazkur konsepsiyaning madaniy-ma'rifiy asoslari xalqning tarixiy merosi, milliy qadriyatlari va zamonaviy ilm-fan yutuqlarining uyg'unligida namoyon bo'ladi. Shu bois Uchinchi Renessans milliy g'oyaning yangi bosqichdagi amaliy ifodasi sifatida jamiyat ma'naviy taraqqiyoti va davlat rivojlanishining muhim omiliga aylanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash va ularni attestatsiya qilish tizimini takomillashtirish to'g'risida" gi 2026 yil 26 maydagi farmoni
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 56 b.
4. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 160 b.





5. Otamuratov S. Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001. – 192 b.

6. Nazarov Q. Aksiologiya: qadriyatlar falsafasi. – Toshkent: Faylasuflar milliy jamiyati, 2011. – 280 b.

7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.

